

TARIXIY OBIDALARNI TEXNIK HOLARINI BAHOLASH VA UMRBOQIYLIGINI TA'MINLASH MASALALARI.

Rahmatxo'jayeva Dilrabo Shuhratxo'ja qizi

Andijon mashinasozlik instituti

Tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7193961>

Kalit soʻzlar: YUNESKO, madaniy, meʼmoriy, IKOMOS, mutaxassis, milliy.

Key words: UNESCO, cultural, architectural, IKOMOS, expert, national..

Oʻzbekistonda, 2017 yildagi maʼlumotlarga koʻra, 2079 meʼmoriy yodgorlik, 4308 arxeologik obʼekt davlat muhofazasiga olingan. Xiva, Buxoro, Shahrisabz va Samarqand qadimiy shaharlar sifatida xalqaro miqyosda tan olinib, ulardagi osori-atiqalar YUNESKOning Butun jahon madaniy merosi noyob obʼektlari roʻyxatiga kiritilgan. Jahon hamjamiyatining bebaho boyligi sanalgan oʻrta asrlarning meʼmoriy yodgorliklarini zukkolik bilan restavratsiya qilish va avaylab-asrash ustidan Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza boʻyicha xalqaro kengash (IKOMOS) ham nazorat olib boradi. Restavratsiya borasida, beozor aytganda, notugal qabul qilingan yechimlar tufayli Samarqand shahriga YUNESKOning kuchaytirilgan monitoringi oʻrnatildi. Shahrisabz shahri esa 2016 yilda “Butun jahon madaniy merosi xavf ostida” roʻyxatiga kiritildi. Chunki YUNESKO va IKOMOS ekspertlari ularda meʼmoriy yodgorliklarni asrash borasida belgilangan xalqaro meʼyorlar buzilganiga duch kelgan edi. Jumladan, Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davridagi oʻrta asr inshootlariga tutash va oʻziga xos uygʻunlik kasb etgan anʼanaviy turarjoy binolari buzildi. Oʻrnida zamonaviy binolar qurildi. Bu esa qadim Kesh — Shahrisabzni “Butun jahon madaniy merosi xavf ostida” xalqaro roʻyxatiga kiritilishiga sabab boʻldi. Yangi imoratlar va zamonaviy usuldagi xiyobon va landshaftlarni barpo etish zarur. Lekin bunday hayrli ishlar tarixiy obidalarimizga ziyon-zahmat yetkazmasdan amalga oshirilsa, ahamiyati yanada ortgan boʻlar edi.

Mamlakatimizda taʼmirlash ishini yanada takomillashtirish va zamon talablari darajasida yoʻlga qoʻyish uchun, avvalo, mutaxassislar bilan hamjihatlikda professional restavratsiyani amalga oshirishning davlat dasturini hamda shaharlar tarixiy qismini tiklash va muhofaza etishning izchil kontseptsiyasini ishlab chiqish zarur. Meʼmoriy obidalarni asrash va taʼmirlash bilan shugʻullanadigan idoralarni tubdan yangilash va ishini takomillashtirish zarur. Aniqrogʻi, koʻplab rivojlangan mamlakatlarda (masalan, Germaniya, Yaponiya) boʻlganidek, bunday oʻta masʼuliyatli ish – qadimiy obidalarimizni asrab-avaylab

saqlash, ta'mirlash va restavratsiya qilish bilan bevosita va ilmiy asosda shug'ullanadigan qo'mita yoki vazirlik darajasidagi alohida tashkilot barpo etish zarur. Toki, u xalqaro talablar doirasida professional ta'mirlash ishlarini olib borsin. Bajargan ishlarining uvol-savobi uchun o'zi javob bersin. Hozir bizda bu masalalar asosan Madaniyat vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Joylardagi hokimliklar ham chetda qarab turmaydi, albatta. Lekin, insof bilan aytganda, mazkur vazirlikning zimmasidagi vazifalar shusiz ham g'oyat ko'pki, obidalar restavratsiyasidek o'ta nozik va behad murakkab, ilmtalab ishni bir boshqarma mutaxassislari eplashi oson emas. Shu bois, tashkil etiladigan yangi tashkilotning har bir bo'limiga me'moriy meros va ta'mirlash ishlarining asl jonkuyar va bilimdon mutaxassislarni jalb etish zarur. Ana o'shandagina yodgorliklarimizning tarixiy qiyofasini saqlab qolish va kelgusi avlodlarga asl holda yetkazish, turizmni rivojlantirish imkoniyatlarimiz yanada oshadi. Me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ilmiy tadqiqot loyiha instituti faoliyati tiklansa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylayman. Yaqinda tiklangan restavratsiya bo'yicha ilmiy-usulbiy kengash faoliyati va vakolatlarini yuksak malakali mutaxassislar bilan yanada mustahkamlash ehtiyoji yo'q emas. IKOMOSning O'zbekistondagi milliy qo'mitasini barpo etish ham muhim ishlardan. Bunday tadbirlar istiqbolda xatolarning oldini olish, restavratsiya sifatini oshirish, yodgorliklar badiiy saviyasi va tarixiy ahamiyatini saqlab qolishda ishlatiladigan qurilish va pardoqlash materiallarini sifatli tayyorlash, ta'mirlash ishlarining ilmiy asoslari, texnologiya va uslublarning to'g'ri qo'llash ustidan nazorat o'rnatishda qo'l kelgan bo'lur edi. Me'moriy merosni asrash, ta'mirlash va boshqarish (menejment) bo'yicha mutaxassislar — arxitektorlar, konstruktorlar, bezakchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash bugungi kunda qanchalik muhim bo'lsa, ertaga ahamiyati yanada oshadi. Rivojlangan davlatlarda bo'lganidek, O'zbekistonda ham me'moriy obidalarni saqlash va ta'mirlash bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan maxsus oliy o'quv yurtini ochish bunda ancha yordam berardi. Masalan, me'moriy yodgorliklari va qadimiy shaharlari biznikidan "yoshroq" Rossiya va Germaniyada restavratsiya san'ati institutlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Hozircha esa kollejlarda usta-kadrlarni tayyorlashga kirishish lozim. Toshkent arxitektura va qurilish instituti, Samarqand davlat arixitektura-qurilish instituti hamda Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutlarida yodgorliklarni ta'mirlash, konservatsiyalash va menejmenti bo'yicha kafedralar ochilishi ham ana shunday ezgu maqsadga xizmat qiladi, deb umid qilaman.

REFERENCES

1. Arxitekturaviy loyihalash asoslari. O'quv qo'llanma. TAQI: 2000.
2. Ахроров И, РемпельЛ. Резное штурк Афрасиаба. 1971.
3. Bositxonov Z. Handasavjy naqshlaming yechimlari. T., 2002
4. Nozilov D. Markaziy Osiyo m e'morchiligida interyer T., 2005
- 5.. O'rolov A M e'moriy shakUarni uyg'unlashtirish va bezash. Darslik. Samarqand-2003.
6. Qodirova T., Po'latovX. «Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish (nazariyasi)» fanidan dastur. O'z ROO'MTV, ro'yxat N°:BD-5580100- Z.l; 20.VI1.2006-y.

Interner saytlar

1. http://library.samdu.uz/files/08bf922751e8b9a7e4b207b88db5c4c7_ARXITEKTURA%20YODGORLIKLARINI%20TA%E2%80%99MIRLASH.pdf
2. <https://fayllar.org/yodgorliklarini.html?page=10>
3. http://uztarix.narod.ru/tarixiy_obidalar.html